



## TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

Navruzov Ikram Abdullayevich

Toshkent moliya instituti "Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrası  
katta o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10435091>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> December 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> December 2023

Online: 27<sup>th</sup> December 2023

### KEY WORDS

Investisiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, retsipient, donor, mexanizm, indekslar, investitsiya hajmi, investitsiya oqimi, xorijiy investitsiya.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning nazariy asoslari hamda iqtisodiy mohiyati yoritilgan bo'lib, mamlakatga investitsiyalarni jalb etishda investitsion muhitning o'rni va investitsiyalarni faol jalb etish yo'llari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan bo'lib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda zarur bo'lgan mexanizmlar va investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar shakllantirilgan.*

### 1. Kirish.

Bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik qurollanish bosqichida iqtisodiy rivojlanish kombinatsiyasi sifatida investitsiya oqimining roli katta ahamiyat kasb etadi. Davlatlar retsipient pozitsiyasi orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etishda o'rta va yirik biznesni tashkil etish va uni yuritish uchun mamlakatdagi yaratilgan investitsiya salohiyati, tashkil etilgan zamonaviy infratuzilma, investitsion muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, xususan, xorijiy kompaniyalarning hech qanday moneliksiz kirib kelishi, xususiy mulk daxlsizligi, faoliyat olib borishi uchun erkin iqtisodiy va maxsus zonalarining tashkil etilganligi, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarning mavjudligiga e'tibor qaratishadi.

Bundan tashqari 2019 yil 29 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ4300-son Qarorining qabul qilinishi orqali chet el investitsiyalarini jalb etishda turli-xil moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, buning uchun esa faol investitsion siyosat yuritishning o'rni juda muhimdir. shunga ko'ra, respublika hududlarining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishini boshqarishning samarali tizimini yaratish, ularning investitsion muhit jozibadorligi, salohiyatini baholashning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shularni e'tiborga olib "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-



yil 28-yanvarda Prezident Farmoni bilan tasdiqlandi. Unga ko'ra uchinchi ustuvor yo'nalish Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash deb nomlanib, unda investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish vazifasi ko'rsatilgan [1].

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Mamlakat/hududning qulay investitsion muhitining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, davlatning jahon hamjamiyatida investitsion jozibadorlik nuqtai nazardan yaxlit namoyon bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning investitsion nufuzini yuqoriga qarab siljitish strategiyasi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun katta ahamiyatga ega [2].

«Investitsion salohiyat»ni sarmoyani takror ishlab chiqarishning moddiy, moliyaviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi real investitsion talabga aylanish imkoniga ega bo'lgan investitsiyalar bozorida investitsion talab shaklida namoyon bo'ladigan, to'plangan sarmoyaning bir qismidan iborat investitsion resurslarning jamlanmasi sifatida talqin etadi [3].

Investitsion muhit jozibadorligi, har bir hududning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi kapital va mehnat resurslarining salohiyati, undan foydalanish darajasiga bog'liq. Umum qabul qilingan nuqtai nazarga ko'ra, aynan hududning iqtisodiy salohiyati va uning imkoniyatlari u erda mavjud bo'lgan barcha majmuaviy resurslardan samarali foydalanish orqali hayotiy zarur bo'lgan ne'matlarni ishlab chiqarish bilan belgilanadi [4].

Agar mamlakat ichida jamg'arish tendensiyasi investitsiyalardan ko'p bo'lsa, unda bu mamlakatda eksport import hajmidan ko'proq bo'ladi. Agar aksincha bo'lsa, bunday mamlakatning eksport hajmi uning importdan kam bo'ladi. O'z imkoniyatlariga qaraganda ortiqroq iste'mol qiluvchi mamlakat tashqaridan, chetdan jalb qilinadigan investitsiyalar hisobiga o'z eksportining importdan ortiq bo'lishiga intiladi. Bunday holda jalb qilingan investitsiyalar kredit tusini oladi [5].

Mamlakatdagi kompaniyalar o'z dividend siyosatida dividend va reinvestitsiya o'rtasidagi me'yoriy nisbatni aniqlashi, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishi, aksiyalarning bozordagi narxlarining o'sishiga erishishi, biznes faoliyatini kengaytirishi kabilar kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon beradi, bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [6].

Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar, qo'shimcha moliyaviy resurslarini joylashtirish, jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilishning eng zamonaviy usullaridan biri IPO mexanizmini qo'llashdir [7].

## **3. Tadqiqot metodologiyasi.**


Mamlakat investitsion jozibadorligi va uni oshirish bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

## **4. Tahlil va natijalar.**

Jahon amaliyotida Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi qator muhim omillar uyg'unligida tavsiflanuvchi investitsion salohiyat va investitsion risk orqali aniqlanadi. Xorijiy investorlar muayyan davlat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni eksport qilishlarida Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion muhit jozibadorligini ifodalovchi Doing

Business (Jahon banki), Global Competitiveness Index (Butunjahon iqtisodiy forumi), Fragile States Index (Tinchlik uchun jamg'arma), Economic Freedom Index (Xayratej fondi, Frazer instituti) kabi indekslar asosida qaror qabul qiladilar.

Mamlakat investitsion muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi turli-xil omillar mavjud bo'lib, ularning kompleks rivojlanishi investitsiya oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatish xarakteriga ega hisoblanadi. Shungdek, institutsional investorlar tomonidan mamlakatimizga bo'lgan donorlik potentsiali oshishiga zamin yaratadi. Quyidagi 1-rasmدا investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar keltirilgan.



**1-rasm. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar [8]**

Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni o'rganish asosida mazkur tadqiqotda hududlarning investitsion jozibadorligini ko'rsatuvchi omillar guruhlangani holda yagona tizimga keltirildi. Bunda asosiy guruhlar sifatida hududning kompleks ko'rsatkichlari aks etadigan ijtimoiy- iqtisodiy salohiyatni anglatuvchi nuqtai nazarlar va ilmiy-amaliy qarashlar umumlashtirilgan va klassifikatsiyalangan (1-jadval).

**1-jadval**

**Mamlakatning investitsion salohiyati va unga ta'sir ko'rsatadigan omillar majmuasi [9]**

\$ №	Guruh	Ko'rsatkichlar to'plami
<b>I. HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYAT DARAJASIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR</b>		




11	Tabiiy-geografik salohiyat	– xom ashyo resurslari: mineral xom ashyolar; er va suv; yoqilg'i-energetika; turli xildagi ruda va metallar.
32	Ishlab chiqarish salohiyati	– ishlab chiqarish quvvatlari: yalpi hududiy mahsulot (YaHM); asosiy vositalarning holati; ishlab chiqarish omillarining unumdorligi; hududning tarmoqlar va sohalar kesimi bo'yicha ixtisoslashuvi; import va eksportning hajmi.
43	Innovatsion salohiyat	– hududning fan-texnika salohiyati: ilmiy-texnikaviy yutuqlar; fan va ilmiy darajaga ega bo'lganlar; ilmiy-texnikaviy loyihalar hajmi; ilm bilan shug'ullanayotganlar; hududda mavjud bo'lgan ilmiy tekshirish va tajriba-konstruktorlik institutlari/filiallari.
64	Infrastruktura salohiyati	– infrastruktura ta'minoti: hududda mavjud bo'lgan suv va elektr-energiyalarning holati; aeroport, avtomobil va temir yo'llarning mavjudligi; axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanganligi.
75	Moliyaviy salohiyat	– moliyaviy salohiyatning asosiy mezonlari: tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati uchun berilgan kreditlar hajmi; aholi tomonidan milliy va xorijiy valyutalarda bank depozitlariga qo'yilgan mablag'lar hajmi; yuridik shaxslarning banklardagi depozitlari (milliy va xorijiy valyutada) hajmi.

Yuqorida zikr etilgan rang-barang omillarning ijobiy tarzdagi konsentratsiyasi xorijdan investitsiyalarning faol kirib kelishiga imkon beradi. Bu esa, tabiiyki, qo'shimcha ish joylari, qo'shimcha daromad, iqtisodiyotning o'sishiga qo'shimcha imkoniyatdir. Bunga qo'shimcha eng muhimi – xorijiy investorlar o'zlari bilan nafaqat kapital olib kiradilar, balki o'z mamlakatlarida bo'lgan ilg'or bilim va tajribani ham olib keladilar. Bu ham mamlakatning kelgusi iqtisodiy o'sishiga imkon tug'diradi.

Yuqorida zikr etilgan rang-barang omillarning ijobiy tarzdagi konsentratsiyasi xorijdan investitsiyalarning faol kirib kelishiga imkon beradi. Bu esa, tabiiyki, qo'shimcha ish joylari, qo'shimcha daromad, iqtisodiyotning o'sishiga qo'shimcha imkoniyatdir. Bunga qo'shimcha eng muhimi – xorijiy investorlar o'zlari bilan nafaqat kapital olib kiradilar, balki o'z mamlakatlarida bo'lgan ilg'or bilim va tajribani ham olib keladilar. Bu ham mamlakatning kelgusi iqtisodiy o'sishiga imkon tug'diradi.

Dunyo miqyosida mamlakatlar o'rtasida ko'plab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishiga guvoh bo'lish mumkin. Jahon banki o'tkazgan tahlillarga ko'ra mamlakatlar faol tarzda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishmoqda.

*To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar mln. AQSh dollarida*



**2-rasm. Mamlakatlar tomonidan jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari ko'rsatkichlari 2022-yil holatiga ko'ra, mln. AQSh dollarida [10]**

2022-yildagi holatga ko'ra jahon bozorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning eng yirik salmog'i AQSh davlatiga to'g'ri kelmoqda, jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 258 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Bu esa bevosita ushbu mamlakatlarda investitsiya jozibadorligi bilan bog'liq siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy sohalar faol tarzda kompleks rivojlanayotganini ko'rsatadi (2-rasm) [11].

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotganligi hamda butun jahon miqyosida raqobatbardosh davlatlardan biriga aylanayotganligi mamlakat, mintaq va undagi iqtisodiy tarmoqlari, qolaversa, alohida korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan olib borilayotgan investitsiya siyosati bilan uzviy bog'liqdir [12].

**5. Xulosa va takliflar.**

Yuqorida bildirilgan tahlil va mulohazalarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, modernizatsiya qilish jarayon- lari kuchayayotgan bir sharoitda davlatning o'rta va uzoq muddatli oraliqdagi investitsion strategiyasi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Hududiy boyligni oshirishda kapital resursidan unumli hamda omillarning chekli kamayib borish qonunidan kelib chiqib, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va maqbul proporsiyada foydalanish bo'yicha modellarni ishlab chiqish [13];
2. Hududlarning bir maromda barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning bir tekisda katta tafovutlarsiz taraqqiy etishiga xizmat qiladigan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish choralari ko'rish [14];
3. Yuqori texnologiyalarga asoslangan va yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan qo'shma loyihalarni tashkil etishga xizmat qiladigan qulay biznes-muhitini yaratish [15];
4. Iqtisodiy o'sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelni shakllantirish zarur [16];
5. Investitsion jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarining jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsion faoliyatni rag'batlantirish kerak [17];



6. Raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va cheklovlarni to'liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish [18].

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganib, tahlil qilish va asoslab amaliyotga tadbiiq etish yaqin kelajakda o'z natijasini beradi. Shuningdek, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [19].

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.
2. Смаглюкова Т.М. общие подходы к формированию региональной ин- веститсионной политики // Современные проблемы науки. – 2014. – № 1.
3. Tumusov F.S. Инвестиционный потециал региона: теория, проблемы, практика. – М., «Економика», 1999. 272-с.
4. Akerman Ye.N., Mixalchuk A.A., Trifanov A.Yu. Типология регионов как инструмент соорганизатсии регионального развития // Вестник Томского гос. ун-а. Экономика. № 331. 126–131-с.
5. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.– T., 2002. 33-b.
6. S.Elmirzayev. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari.// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnali, №2, 2020. – B.11; <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>
7. Aziz Shomirov. "The role of ipo mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects", International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article 19.
8. Nasirov E.I., Asamxodjayeva Sh.Sh. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2020. 77-79 betlardagi ma'lumotlar orqali muallif tomonidan erkin tayyorlandi.
9. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya T., 2017 67-68 betlar.
10. . <https://data.worldbank.org/> – ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.
11. Турсунова Н., Очилов Б. Вопросы повышения роли финансового рынка в деятельности корпоративных структур // Экономика И Образование. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 108-112.
12. Ochilov B. MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI YAXSHILASH MASALALARI //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – Т. 24. – №. 1. – С. 75-81.
13. Abdullaevich N. I. The Importance of Investment Attractiveness and The Role of Foreign Direct Investors in The Growth of The Country's Economy //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 25. – С. 22-26.



14. Abdullaevich N. I. The Role of Regional Investment Attractiveness in Attracting Foreign Direct Investment to the Country //European Journal of Economics, Finance and Business Development. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 1-6.
15. Hoshimov J. INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA XITOIY VA SINGAPUR TAJRIBASI //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – T. 24. – №. 2. – C. 369-373.
16. Abdullayevich N. I. ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT IS A GUARANTEE OF PROGRESS //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 24. – C. 226-230.
17. Aktamov B. BAHOLASH FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 248-252.
18. Aktamov B. THE PRACTICE OF DIGITALIZATION OF EVALUATION ACTIVITIES AND THE PROSPECTS OF ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2023. – T. 19. – C. 69-77.
19. Ismailovich N. E. et al. The Role of the Investment Environment in Attracting Reserves to the Economy of Uzbekistan //Solid State Technology. – 2020. – T. 63. – №. 4. – C. 73-80.